

**KORXONA FAOLIYATI SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI
BAHOLASH USULLARI**

Shamsiddinov Bahodir Nodirovich

Buxoro innovatsiyalar universiteti, iqtisodiyot yo'nalishi magistri

Annotatsiya. Korxonada faoliyatini baholashda samaradorlik tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Samaradorlik - qandaydir bir samara olish, ya'ni qilingan harakatlar natijalarining faolligini anglatadi. Ushbu maqolada samaradorlik, tashkiliy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, texnologik samaradorlik, huquqiy samaradorlik, ekologik va ma'naviy samaradorlik, samaradorlikni baholash usullari kabi tushunchalar mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: samaradorlik, tashkiliy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, ijtimoiy samaradorlik, texnologik samaradorlik, huquqiy samaradorlik, ekologik va ma'naviy samaradorlik.

Tadbirkorlik faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad – ko'proq sof foydaga erishishdir. Har qanday iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda avvalo resurslar sarflanadi, ya'ni xarajatlar amalga oshiriladi. Ko'proq sof foydaga erishish uchun esa ushbu xarajatlarni to'g'ri rejalashtirish, sarflanayotgan xarajatlarning har bir birligini imkon qadar ko'proq foyda keltiradigan holda amalga oshirish talab etiladi (1-jadval).

Iqtisodiy samaradorlik - ma'lum davrdagi iqtisodiy faoliyat davomida amalga oshirilgan xarajatlar evaziga olingan sof foyda summasi bilan aniqlanuvchi muhim ko'rsatkichdir.

Iqtisodiy samaradorlik deganda amalga oshirilgan har bir so'mlik xarajat evaziga olingan sof foyda hajmi tushuniladi, ya'ni korxonada qilinayotgan xarajatlarning natijadorligini anglatadi.

Sarflangan xarajatlar har bir birligi evaziga olingan sof foyda summasi qancha ko'p bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi shunchalik yuqori hisoblanadi va aksincha.

Iqtisodiy samaradorlik darajasining oshishi korxonada kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni rivojlantirish va xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga ishlab chiqarishga yangi texnikalar, samarali texnologiyalarni joriy etish ta'minlanadi.

1-jadval.

Korxonada faoliyatini samaradorligini baholash usullari.

Ma'lumotlarni tahlil qilishning asosiy usullari	Tahlil turlari
Trendli	Korxonada faoliyatini samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning bir necha yillik davrdagi qiymati o'zgarishi dinamikasini tahlili

Tarkibiy	Foyda shakllanadigan korxonalar faoliyati yo'nalishlarining tarkibiy tahlili
	Foydaning mahsulot (xizmat) turlari bo'yicha tarkibi tahlili
	Korxonalar aktivlari dinamikasining tarkibiy tahlili
	Korxonalar foydasi foydalanilishining tarkibiy tahlili
Taqqoslama	Hisobot yilidagi haqiqiy ko'rsatkichlarni hisobot yilining reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslash
	Hisobot yilidagi haqiqiy ko'rsatkichlarini basis yilining haqiqiy ko'rsatkichlari bilan taqqoslash
	Korxonada samaradorlik ko'rsatkichlarining taqqoslama tahlili
Omili	Korxonalar tushumlarining omilli tahlili
	Korxonalar foyda ko'rsatkichlarining omilli tahlili
	Mehnat resurslaridan foydalanishning omilli tahlili
	Ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning omilli tahlili

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli Qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga muvofiq qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Mahsulotlarni sotish, xizmatlar ko'rsatish natijasida xo'jalikning hisob-kitob raqamiga kelib tushgan mablag'lar uning yalpi pul tushumini tashkil etadi. Yalpi pul tushumidan egri soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i) summasini ayirish orqali sof pul tushumi aniqlanadi.

Korxonalarining yalpi daromadi yalpi mahsulot qiymatidan ishlatilgan asosiy vositalarning amortizatsiya summasini ayirish orqali aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$YaD = YaM - As$$

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlardan biri – foydadir. Foyda summasi orqali ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi va korxonaning iqtisodiy salohiyatiga baho berish mumkin.

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda qo'llaniladigan foyda turlari:

- yalpi foyda summasi. Ushbu ko'rsatkich mahsulot sotishdan tushgan sof pul tushumidan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxiga kiruvchi xarajatlarni ayirish orqali aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$YaF = SPT - IChTX$$

asosiy faoliyatdan olingan foyda. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun yalpi

foydadan davr xarajatlarini ayirish va asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni qo'shish hamda asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

- asosiy faoliyatdan olingan foyda. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun yalpi foydadan davr xarajatlarini ayirish va asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarni qo'shish hamda asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$AFF = YaF - DX + AFB D - AFBZ$$

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda qo'llaniladigan foyda turlari:

Davr xarajatlari – bu korxonani boshqarish va muomala xarajatlari yig'indisidir. Mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlar ham davr xarajatlari tarkibiga kiradi.

Davr xarajatlari – bu korxonani boshqarish va muomala xarajatlari yig'indisidir. Mahsulotlarni sotish bilan bog'liq xarajatlar ham davr xarajatlari tarkibiga kiradi.

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, penyalar, vaqtida to'lanmagan qarzlarni va xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun jarimalar, shuningdek yetkazilgan zararlarni undirish bo'yicha daromadlar;

- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillar foydasi;

- asosiy fondlar va boshqa mol-mulklarni sotishdan olingan daromadlar;

da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

- da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;

- xo'jalikning umumiy ovqatlanish shaxobchalaridan tushumlar va yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi boshqa daromadlar;

- davlat subsidiyalari va xolisona moliyaviy yordamlar.

Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi: umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun asosiy faoliyatdan olingan foydaga moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni qo'shish va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

- umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun asosiy faoliyatdan olingan foydaga moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarni qo'shish va moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$UFF = AFF + MFD - MFX$$

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda qo'llaniladigan foyda turlari:

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki uning tashqarisida boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulush qo‘shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo‘yicha olingan dividendlar hamda obligatsiyalar va xo‘jalikka tegishli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar;

- mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;
- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha ijobiy kurs tafovuti;

- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha ijobiy kurs tafovuti;

- qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalariga va boshqalarga sarflangan mablag‘larni qayta baholashdan olingan daromadlar;

- moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlar;

- mol-mulkni uzoq muddatga ijaraga olish (shu jumladan lizing) bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari;

- chet el valyutasi bilan operatsiyalar bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari va zararlar;

- qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalariga va boshqalarga sarflangan mablag‘larni qayta baholashdan ko‘rilgan zararlar;

- o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar;

- o‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar;

- moliyaviy faoliyatdan boshqa xarajatlar.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

soliq to‘languncha bo‘lgan foyda. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga tasodifiy (ko‘zda tutilmagan) daromadlarni qo‘shish va tasodifiy zararlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

- soliq to‘languncha bo‘lgan foyda. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foydaga tasodifiy (ko‘zda tutilmagan) daromadlarni qo‘shish va tasodifiy zararlarni ayirish orqali aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$STF = UFF + TD - TZ$$

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda qo‘llaniladigan foyda turlari:

Tasodifiy foyda - bu ko‘zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo‘lgan, xo‘jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo bo‘ladigan va olinishi kutilmagan foydadir.

Tasodifiy zararlar - bu korxonaning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro‘y berishi kutilmagan

odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir.

U yoki bu xarajat moddasining favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga mos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emasligi.

sof foyda. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun soliq to'langungacha bo'lgan foydadan to'lanadigan soliqlar summasini ayirish lozim. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

▪ sof foyda. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun soliq to'langungacha bo'lgan foydadan to'lanadigan soliqlar summasini ayirish lozim. Bunda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$SF = STF - ST$$

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda qo'llaniladigan foyda turlari:

Mutlaq ko'rsatkichlar iqtisodiy samaradorlikka to'liq baho berish imkonini bermaydi. Masalan, ikkita korxonada yil yakuni bo'yicha erishilgan moliyaviy natija bir xil, ya'ni 400,0 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ushbu korxonalarda iqtisodiy samaradorlik darajasi bir xil ekanligini anglatmaydi.

Iqtisodiy samaradorlikka baho berishda mutlaq ko'rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Ulardan biri rentabellik darajasidir.

Rentabellik darajasi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga baho berishda qo'llaniladigan asosiy mezon ko'rsatkich hisoblanadi.

Rentabellik darajasi qilingan xarajatlarning samaradorligini tavsiflaydi, ya'ni qilingan har bir birlik xarajat evaziga qancha sof foyda olinganligini ko'rsatadi.

Rentabellik darajasini aniqlash uchun sof foydani to'liq tannarxga kiritiladigan xarajatlarga taqsimlab, natija 100 ga ko'paytiriladi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

Bu ko'rsatkich yordamida korxonada, tarmoq miqyosida yoki alohida mahsulotlar turlari bo'yicha xarajatlarning iqtisodiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, bu iqtisodiy samaradorlik darajasi ham shunchalik yuqori ekanligidan dalolat beradi. Masalan, rentabellik darajasi 20 foiz bo'lsa, bu qilingan har 1000 so'm xarajat evaziga korxonada 200 so'mdan sof foyda olinganligini anglatadi.

Korxonada faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga baho berishda rentabellik me'yori ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun sof foyda summasi xo'jalikda foydalanilayotgan barcha ishlab chiqarish fondlari umumiy qiymatiga taqsimlanadi va natija 100 ga ko'paytiriladi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

Korxonada faoliyati samaradorligiga baho berishda xususiy va umumiy

ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Xususiy ko'rsatkichlarga quyidagilar bo'lishi mumkin:

- har bir turdagi resurslardan foydalanish samaradorligi;
- korxonada har bir turdagi mahsulot (xizmat)ni sotishning samaradorligi.

Umumiy ko'rsatkichlarga esa quyidagilar kiradi:

- korxonaning barcha resurslari va mahsulotlari samaradorligi;
- korxonada faoliyatining umumiy samaradorligi.

Korxonada faoliyati samaradorligini baholash tartibi bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.

1-bosqich. Korxonada ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini aks ettiruvchi rentabellikning umumiy ko'rsatkichlari hisoblanadi va baho beriladi.

• Sotish rentabelligi – sotishdan tushgan tushumdagi sof foydaning ulushini anglatadi.

- Sotilgan mahsulot rentabelligi – mahsulotni sotish samaradorligini anglatadi.

2-bosqich. Korxonada resurslardan foydalanish samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatuvchi rentabellik ko'rsatkichlari hisoblanadi va baho beriladi.

• Aylanma fondlar rentabelligi – korxonaning aylanma fondlaridan foydalanish samaradorligini anglatadi.

• Xususiy kapital rentabelligi – korxonaning xususiy kapitalidan foydalanish samaradorligini anglatadi.

• Investitsiya qilingan kapital rentabelligi – korxonaning faoliyatiga investitsiya qilingan, kiritilgan mablag'lar samaradorligini anglatadi.

• Qarzga olingan kapital rentabelligi – korxonaning qarzga olingan mablag'laridan foydalanish samaradorligini anglatadi.

3-bosqich. Rentabellik ko'rsatkichlarining omilli tahlili o'tkaziladi. Maqsad – haqiqiy ko'rsatkichlarning bazis davridagi ko'rsatkichlar va reja ko'rsatkichlaridan og'ishlarining sabablarini aniqlashdir.

4-bosqich. Korxonada faoliyatining alohida aspektlarini aks ettiruvchi samaradorlikning xususiy ko'rsatkichlari hisoblanadi va baho beriladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mahsulotlarning xarajat sig'imi;
- har bir xodim hisobiga to'g'ri keladigan mahsulot qiymati va ish haqi darajasi;
- mahsulot tannarxi tarkibida xarajat elementlarining salmog'i va hokazo.

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarga e'tibor berish lozim:

1) Korxonada yalpi mahsulotini ko'paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:

- unumdorligi yuqori texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minlash;
- korxonada mehnat unumdorligini oshirish;

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarga e'tibor berish lozim:

- korxonalarda xomashyo ta'minotini yanada takomillashtirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy ishlab chiqarish vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta'minlash;
- mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarga e'tibor berish lozim:

2) Korxonada mahsulotlar tannarxini pasaytirish chora-tadbirlari:

- ishlab chiqarishni samarali joylashtirish;
- zamonaviy, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijasida ish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish;
- xodimlarni rag'batlantirish tizimini yaxshilash;
- davr hamda moliyaviy faoliyat xarajatlarini tejash va boshqalar.

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarga e'tibor berish lozim:

3) Korxonalar faoliyatiga bozor munosabatlarini joriy etishni jadallashtirish tadbirlari:

- korxonalarda yetishtirilgan mahsulotlarni sotish jarayonini erkinlashtirish;
- investitsiyalar jalb etilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarga e'tibor berish lozim:

- korxonalar faoliyatiga xizmat qiluvchi infratuzilma sohalarini rivojlantirish;
- korxonalar faoliyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni jadallashtirish;
- korxonalarda yetishtirilayotgan mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni qo'llab-quvvatlash va hokazo.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uzbekistan, B. (2021). Ergasheva Aziza Farmonovna. ВОЗМОЖНОСТИ И ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ, 24.
2. Эргашева, А. (2023). Хунармандчилик маҳсулотлари бозорида хизмат кўрсатишнинг ўзига хос хусусиятлари. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 34(34).
3. Эргашева, А. (2023). РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПРИВИЛЕГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ ремесел. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).

4. Эргашева, А. (2023). МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В СФЕРЕ РЕМЕСЕЛ В МАХАЛЛЯХ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 36(36).
5. Эргашева, А. (2023). HUNARMANDCHILIK SOHASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 35(35).
6. Эргашева, А. (2023). HUNARMANDCHILIK MAHSULOTLARI BOZORIGA XIZMAT KO‘RSATISHNING RIVOJLANISHINI HOZIRGI DARAJASI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 32(32).
7. Zayni o‘g‘li, N. S., & Ergasheva, A. F. (2023). THE CURRENT STATE OF THE ONLINE TOURISM MARKET OF UZBEKISTAN AND THE USE OF MARKETING METHODS IN ITS DEVELOPMENT. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(3), 227-230.
8. Эргашева, А. (2023). ANALYSIS OF CURRENT PROBLEMS AND OPPORTUNITIES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL TOURISM INDUSTRY OF UZBEKISTAN. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 29(29).
9. kizi Narzullayeva, S. A., & Ergasheva, A. F. Modern Journal of Social Sciences and Humanities.